

OLIV O'QUV YURTIDA TARBIVAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI SHAKL, METOD VA VOSITALARI.

Alijonova Maftuna Botirjon qizi

*Namangan davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang'ich ta'lim) fakulteti II bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulqatvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir.*

Kalit so'zlar: *metod, g'oya, predmet, stend, jazo, jamoa, barkamol, erkin, ijodkor, rag'bat.*

Hozirgi davrda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tamonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan.

Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.

Tarbiya metodlari - pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jixatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir.

Vazifalari va predmeti- o'quvchilarni yuksak darajada tarbiyalash san'atining qirralari, shakllari va yo'llari hamda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish haqida baxs yuritadi; ta'lim muassasalarida tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil etish. O'quvchilarni ma'naviy, axloqiy jihatdan intellectual salohiyatli etib tarbiyalash o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lish; tarbiya ishlarida zarur bo'lgan metodlarni qo'llay bilish, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini rivojlantirib borish har tamonlama barkamol, erkin, ijodkor, tashkilotchi, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini o'z ichiga oladi.

Tarbiya metodlari o'qituvchi va jamoa tomonidan tarbiyalanuvchilarning g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his tuyg'u va odatlarini tarkib toptirish maqsadida qo'llanadigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini anglatadi.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan

tarbiyaviy ishlarni olib borganda turli xil usul va vositalarni qo'llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, ta'sir qilish zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun tarbiyaviy ishlar metodikasi fanida ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib quyidagi turlarga ajratish mumkin.


1. Ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar.
2. Odatlantirish va faoliyatga mashqlantirish metodlari.
3. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o'quvchilarning ijtimoiy ongiga hayot, ahloq, mehnat qilish munosabatlari to'g'risida qoida va meyorlarini hosil qilishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu metod shaxsning e'tiqodi va ishonchiga aylanib boradi.

Ikkinchi guruh metodlari yordamida o'quvchilarda ma'naviy mazmuniga oid odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi. Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy munosabat, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi.


Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvor va odatlarni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruh metodlariga rag'batlantirish va jazo berish kabilar kiradi.

Tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan metodlarni quydagicha ifodalash mumkin:



Tarbiyaviy ishlar tizimi va tarbiya jarayoni har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.



Birinci guruh metodlarining vazifasi o'quvchining ijtimoiy ongiga hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me'yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me'yorlar shaxsning e'tiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi. Ushbu guruhga ma'naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna ko'rsatish metodlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh metodlari yordamida o'quvchida ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qiladi. O'quvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma'naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi.

Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarni bajarilishi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi tavsifdagi ko'rinishda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg'usini uyg'otishi ko'zda tutilgan holda

maslahat, iltimos, ta'na qilish, faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchida u yoki bu darajaja ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi.

O'rgatish – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

O'rgatish o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi. Faoliyatda mashqlar mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilganligidir. Mashq qilish o'rgatish bilan yaqin aloqada bo'ladi. Agar o'rgatib borish negizida bolaning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish o'rgatib borishga suyangan holda ko'p bora takrorlashni, mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazorat qiladi, bular esa bora-bora ijtimoiy xulq-atvorning asosi bo'lib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda ko'pincha maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tug'iladi, bunda mustaqil tanlash uchun imkon bo'ladi. Pedagogik vaziyatlarda o'quvchilar o'z fikri va xulq-atvorini qayta o'zgartirishi lozim bo'lgan sharoit yaratiladi.

Ikkinchi guruh metodlari orasida musobaqa o'quvchilar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish metodlari samaradorligini oshirishning zarur va muhim sifati hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining barcha sohalarida o'quvchilarning faolligi va ijodkorligini rivojlantirishga, o'quvchilar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Musobaqa to'g'ri tashkil qilinganda jamoa hissi muvaffaqiyatli shakllanadi, intizom va o'quvchilarning uyushqoqligi mustahkamlanadi.

Musobaqaning alohida turi bo'yicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyushtiriladi: chunonchi, eng yaxshi sinf, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi maktab va h.k.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlari tashabbus va g'ayrat ko'rsatishi asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishini ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarur. Musobaqani rasmiy axborotlar uchun tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Jamoatchilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo'lib qoladi.

Birinchi va ikkinchi guruh metodlarini o'zaro bog'liq holda qo'llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki o'qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o'quvchi ongi, xulqiga ta'sir

etadigan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko'ra olishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda bugungi o'quvchi tarbiya natijasida ertagni komil inson, ya'ni jamiyatning barkamol a'zosiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobiy fazilatlarini o'zida shakllantirib borishi lozim.

Xo'sh, inson ongi va u borliqni, atrof-muhitni anglashi uchun qanday faoliyat darajasiga yetishi kerak?

Inson ongi – uning idroki, aql orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir.

Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruhga rag'batlantirish va jazo berish kabi metodlar kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Sarsenbayeva R.M. —Tarbiyaviy ishlar metodikasi o'quv fanini o'rganish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. –T.: TMI, 2018. – 294 b.

2. Аналитический отчет воспитательного отдела факультета международных отношений и социально- гуманитарных коммуникаций института социального образования за 2017/2018 учебный год, Екатеринбург, 2017. URL: https://uspu.ru/institutes/isobr/fmoisgk/ped_work/ (дат а обращения: 05.05.2018).

3. Андреев Ю. П., Коржевская Н. М., Костина Н. Б. Социальные институты: содержание, функции, структура. Свердловск: Изд - во Урал, ун - та, 2009. 84 с.

4. Boltaboyev Azizbek Hasanboy o'g'li, Alijonova Maftunahon Botirjon qizi.. METHODS OF USING MODERN TECHNOLOGIES OF TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E):2347-6915Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021)960. 960-963pp.

5. Boltaboyev Azizbek Xasanboy o'g'li, & Ahmedov Davlatbek Saloxiddin o'g'li. (2022). Psychological Features of Adolescence. Eurasian Research Bulletin, 25 27. Retrieved .25-27 pp.

6. Boltaboev Azizbek Hasanboy ugli, HEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF THE SPATIAL PERSPECTIVE IMAGERY IN THE PERFORMANCE OF PENCIL AND DRAFT IN THE PROCESS OF STUDENT EDUCATIONAL PROCESS. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY: 2 pp. 12-17 (2).

7. Boltabayev Azizbek Khasanboy. (2021). In Painting Natyurmort

It's Working Methods And Peculiarities. The American Journal of Applied Sciences, 3(01), 123-127.

8. Boltaboyev Azizbek Xasanboy O'g'li "Экономика и социум"
METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF
PROFESSIONAL PEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS BY MAKING
PENCIL DRAWINGS AND DRAFTS.

9. Boltaboyev Azizbek Xasanboy O'g'li CENTRAL ASIAN JOURNAL OF
ARTS AND DESIGN. Color Relationships in Paintings.

